

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 348 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**  
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIUprofessor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Musayeva Shoirazimovna**, SamDu IS instituti professori  
**Cham Tat Huei**, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
**Djudi Smetana**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Krissi Lyuis**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Ali Konak (Али Кўнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyeich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyea Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari .....                                                                            | 16  |
| Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna                                                                                        |     |
| Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar<br>omilidan foydalanish istiqbollari .....                                         | 26  |
| Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li                                                                                      |     |
| Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili .....                                                                      | 32  |
| Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li                                                                                                                           |     |
| Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish<br>va uni qayta ishlash holatining tahlili .....                       | 37  |
| Turgunov Odilbek Maripovich                                                                                                                                 |     |
| Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi .....                                                                                                 | 41  |
| I. Axmedov                                                                                                                                                  |     |
| Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari .....                                                          | 46  |
| Xusanov Murodjon Sunnatullayevich                                                                                                                           |     |
| Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi .....                                                                                              | 54  |
| Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li                                                                                                                            |     |
| Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish .....                                                             | 59  |
| Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich                                                                                                                             |     |
| O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rne .....                                                                            | 65  |
| Baymanova Mavlyuda Djurayevna                                                                                                                               |     |
| The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan .....                                                                        | 70  |
| Alimov Damirjon Odilovich                                                                                                                                   |     |
| Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rne .....                                                           | 76  |
| Jusupova Anjim Tansiqbaevna                                                                                                                                 |     |
| Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....                                                               | 82  |
| Sohibjamol Abirkulova                                                                                                                                       |     |
| Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion<br>usullardan foydalanish .....                                     | 87  |
| Ustadjalilova Xurshida Aliyevna                                                                                                                             |     |
| Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar<br>va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari ..... | 92  |
| Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li                                                                                                                     |     |
| O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal<br>samaradorligi .....                                              | 97  |
| Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna                                                                                                                         |     |
| Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida<br>energosamaradorlikning roli .....                                                                           | 104 |
| J. J. Yaxshilikov                                                                                                                                           |     |
| Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области .....                                                                             | 109 |
| Мусабоев Рустам Алижонович                                                                                                                                  |     |
| Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rne<br>(Qashqadaryo viloyati misolida) .....           | 114 |
| Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich                                                                                            |     |
| Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari .....                                                                      | 118 |
| Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                               |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы .....                                                            | 122 |
| Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи,<br>Алижоннова Малика Алижон кизи, Ҳакимова Нигора Бахтиёрвна |     |
| Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....                                                     | 127 |
| Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon                                                                                          |     |
| O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....                                              | 130 |
| Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li                                                                                           |     |
| Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....                                                       | 136 |
| To'irov Yunus Alamovich                                                                                                       |     |
| Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning<br>shakllanishi.....                     | 143 |
| Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich                                                                                               |     |
| Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini<br>ta'minlash.....             | 148 |
| Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li                                                                                         |     |
| Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....                                          | 152 |
| Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna                                                              |     |
| QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....                                                                                  | 157 |
| Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich                                                                                            |     |
| O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili .....                                                               | 162 |
| Nasimov Ravshanjon Azimovich                                                                                                  |     |



# OPERATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA STRATEGIYA TUSHUNCHASIGA BO'LGAN YONDASHUVLARNING SHAKLLANISHI



**Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich**

Namangan muhandislik-texnologiya in스티ti  
“Menejment” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

**Annotatsiya:** Korxona foydaning katta qismini asosiy faoliyatidan oladi. Korxonalarda asosiy faoliyati ham operatsion faoliyat hisoblanib unda mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqarishga qaratilgan biznes jarayonlari tushuniladi. Maqolada operatsion faoliyatning qisqacha izoh berilgan va bu faoliyatda shakllantiriladigan strategiya mazmuni yoritib o'tilgan. Olimlarning strategiya atamasiga bo'lgan yondashuvlarining shakllanish tavsiflari keltirilgan. Operatsion faoliyatda strategiyalarning xususiyatlari bayon etilgan. Sohaga doir tegishli tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tashqi muhit, operatsion menejment, ishlab chiqarishning asosi, strategiya, “qo'mondonlik san'ati”, strateglar, resurslarni boshqarish, rahbarlik san'ati, ish yuritishning bosh rejasi, yalpi strategiyalar.

**Abstract:** The company receives most of its profits from its core activities. Operational activities are considered the main activities of enterprises; business processes aimed at producing products and services are understood. The article provides a brief description of operational activities and highlights the content of the strategy formed in these activities. Characteristics of the formation of scientists' approaches to the term strategy are given. The features of strategies in operational activities are described and appropriate recommendations are given.

**Key words:** external environment, operational management, fundamentals of production, strategy, “the art of command”, strategists, resource management, art of management, general strategies.

**Аннотация:** Компания получает большую часть прибыли от своей основной деятельности. Операционная деятельность считается основной деятельностью на предприятиях, понимаются бизнес-процессы, направленные на производство продукции и услуг. В статье дается краткая характеристика оперативной деятельности и освещается содержание стратегии, формируемой в этой деятельности. Даны характеристики формирования подходов ученых к термину стратегия. Описаны особенности стратегий в оперативной деятельности, даны соответствующие рекомендации.

**Ключевые слова:** внешняя среда, оперативное управление, основы производства, стратегия, “искусство командования”, стратеги, управление ресурсами, искусство управления, общие стратегии.

## KIRISH

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. So'nggi 7 yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi [1]. Bunda Prezidentimiz tomonidan qabul



qilingan mamlakatimizning Taraqqiyot strategiyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq hamda marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratmoqda.

Tez o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida korxona va firmalar operatsion faoliyatini boshqarishda ishlab chiqilayotgan strategiyalarning korxona maqsadi va vazifalariga mos shakllantirilishiga e'tiborga molik masalalardan biridir. Strategiya – bu umumiy majmuaviy, uzoq muddatga yo'naltirilgan va korxona resurslarini raqobatdagi ustunlikka erishish uchun murakkab ishlab chiqilgan rejadir.

Bugungi kunda korxona operatsion faoliyatini boshqaruv strategiyasi – korxonaning operatsion faoliyatini tegishli davr mobaynida kechayotgan fan-texnika taraqqiyoti zaminida belgilanadi, aniqlashtiriladi va samarali yo'nalishlari bilan boyitiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Operatsion menejment – bu ishlab chiqarish tizimlarini tashkil qilish, ulardan foydalanish va takomillashtirish bilan bog'liq faoliyat bo'lib, uning asosida korxona mahsulotlari yoki xizmatlari ishlab chiqariladi. Operatsion menejment – bu mahsulot va xizmatlarning asosiy turlarini ishlab chiqarishga qaratilgan biznes jarayonlarini tashkil qilish, ulardan foydalanish va takomillashtirish faoliyatidir.

Ishlab chiqarishning asosi – bu tashkilot xodimlari va mijozlari uchun muhim bo'lgan operatsiyalarni boshqarishni tashkil etishning samaradorligi hamda ratsionalligi hosil etadi. Operatsiyalar resurslarni mahsulot va xizmatlarga qayta ishlash bilan bog'liq inson faoliyatining har qanday turi sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarish tizimi – bu ishlab chiqarish omillarini (“kirish”) tanlangan mahsulot yoki xizmatlarga (“chiqish”) aylantirish uchun operatsion resurslardan foydalanadigan tizim sanaladi. Tizimning samarali bo'lishi uni boshqarishda foydalaniladigan strategiyalarga bog'liq. Demak bunda strategik boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategik boshqaruv nazariyasi markazida “strategiya” tushunchasi yotadi. Strategiya so'zi juda qadimiy bo'lib, yunoncha strategiya so'zidan olingan va u “qo'mondonlik san'ati” yoki “qo'mondonlik ilmi” ma'nolarini bildiradi. Tarix shuni ko'rsatadiki, eng iste'dodli va muvaffaqiyatli qo'mondonlar qo'shinni qanday qilib qo'llab-quvvatlash va ushlab tura olishga, shuningdek, qachon jangga kirish, qachon esa xalq, siyosatchilar, diplomatlar bilan muzokaralarga kirishishga katta ahamiyat berganlar. Ularni strateglar deb atalgan.

Biroq, strategiya tushunchasidan foydalanish qadimgi yunonlar uchun yangilik bo'lmagan. Qadimgi Xitoyda allaqachonlar miloddan avvalgi 480 va 221-yillar orasida “Strategiya san'ati” nomli kitob yozilgan. Lekin, hozirga qadar buning muallifi xalqmi yoki aniq bir shaxsmi aniq xulosa yo'q. Masalan, Sun Tsu shunday yozgan: “Kim yuzlab kelishmovchiliklarda yuzlab g'alabalarni qo'lga kiritgan bo'lsa, yuksak mahoratga ega deyish dargumon. Kim strategiyani qo'llab, kelishmovchiliklarsiz boshqalarni yenga olsa, shu inson yuksak mahoratga ega”, deyiladi.

Biznes tashkilotlarini boshqarishga strategik yondashuvdan foydalanish namunalari XX asrning 20–30-yillarida kuzatila boshlandi, ammo strategiya tushunchasi 50-yillarda boshqaruv leksikasiga kirdi, kompaniya va firmalarning tashqi bozor muhitida kutilmagan o'zgarishlarga munosabati juda muhim bo'ldi[2].

Avvaliga strategiya tushunchasining ma'nosi noaniq edi. Turli lug'atlarni o'rganish ham bu tushunchaning mohiyatini aniq ochib berishga yordam bermadi, chunki harbiy terminologiyadan so'ng ular strategiyani “jang uchun qo'shinnlarni joylashtirish fani va san'ati” yoki “davlatlarning barcha mavjud vositalardan foydalanib, harbiy-siyosiy ittifoqi, mamlakat siyosati yoki rejalashtirish”, deb tushundilar[3].

Bu tushuncha “uzoq muddatli chora-tadbirlar” yoki “yondashuv”ni bildirib, umumiy ma'noda ham qo'llanildi. Sekin-astalik bilan strategiya so'zi biznesni boshqarish leksikasiga kirib keldi.

Strategiya (qadimiy yunoncha στρατηγία, “qo'mondon san'ati”):

1) harakat usuli;

2) uzoq vaqtni o'z ichiga olgan har qanday faoliyatning umumiy, batafsil rejasi, noaniq va hozirgi vaqtda menejer uchun murakkab maqsadga erishishning asosiy yo'li, keyinchalik menejer-strategning mavjudligining o'zgargan sharoitlariga moslashtirilishi;

3) xulq-atvor modeli ma'nolarini bildiradi[4].

Uzoq vaqt davomida “strategiya” mohiyati “resurslarni boshqarish”ni anglatdi. Ko'pincha, strategiya yuqori boshqaruvning tashkilotning operatsion faoliyatida uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun uzoq muddatli rejalari, deb tushunildi. Ba'zi mualliflar, “bu biznes rahbarlarining ishlab chiqarish, marketing va savdo, daromad va xarajatlar yoki kapital qo'yilmalarni uzoq muddatli boshqarish maqsadlaridir”, deb izohladilar. “Strategiya” tushunchasi biznes muhitining murakkabligiga qarab o'zgarib, shakllanib bordi.

Quyidagi jadvalda keltirilgan ta'riflardan xo'jalik yurituvchi subyektlarning strategiyasini shakllanishini kuza-tishimiz mumkin.



### 1-jadval. “Strategiya” tushunchasiga nisbatan yondashuvlarni shakllanish tavsifi

| Strategiyaning aniqlanishi                                                                                                                                  | Muallif                                                      | Asosiy yondashuv                                                                                                                                                             |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Strategiya tashkilotning uzoq muddatli maqsadlarini, uning harakat dasturini va resurslarni taqsimlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilash usuli sifatida | A.Chandler, 1962-y.                                          | Uzoq muddatli maqsadlar ishlab chiqiladi va tashkilotning operatsion muhitining tashqi yoki ichki sharoitlari o'zgarmaguncha qayta ko'rib chiqilmaydi                        |
| Strategiya tashkilotning raqobat maqsadlarini aniqlash usuli sifatida                                                                                       | Garvard biznes maktabi, 1965-y.                              | Strategiya kompaniyani tashkil bo'ladigan yoki davom etadigan asosiy biznes muhitini aniqlaydi                                                                               |
| Strategiya tashqi imkoniyatlar va tahdidlarga, ichki kuchli va zaif tomonlarga javob berish usuli sifatida                                                  | M.Porter, 1980–1985-yy.                                      | Strategiyaning asosiy vazifasi – tashkilotlarni har qaysi biznes sohasida uzoq muddatli raqobat ustunliklariga ega bo'lishga qaratiladi                                      |
| Strategiya korporativ, biznes va funktsional darajalar uchun maqsadlarni belgilash usuli sifatida                                                           | I.Ansoff, 1965-y.<br>D.Steyner, 1977-y.<br>P.Loranj, 1977-y. | Strategiyaning ishlab chiqishda korporativ, biznes va funktsional maqsadlarni tashkilotdagi boshqaruv jarayonlariga turli ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan farqlash lozim. |
| Strategiya boshqaruv qarorlarining izchil, muvofiqlashtirilgan va integratsiyalashgan tuzilmasi sifatida                                                    | G.Mintsberg, 1987-y.                                         | Strategiyaning ishlab chiqishda asosiy e'tibor strategik maqsadlarga erishish samaradorligini nazorat qilishga xizmat qiluvchi rejalarni shakllantirishga qaratiladi         |
| Strategiya, tashkilotning iqtisodiy va noiqisodiy afzalliklarni aniqlash usuli sifatida                                                                     | Umumiy fikrlar                                               | Strategiya ijtimoiy yo'nalish kasb etib, korporativ falsafa va tashkiliy madaniyat nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi                                                        |
| Strategiya tashkilotning asosiy raqobat ustunliklarini ishlab chiqish usuli sifatida                                                                        | G.Xamel, 1989-y.                                             | Raqobatbardoshlikning asosini korxonaning maxsus qobiliyatlari va ichki resurslar tashkil etadi                                                                              |
| Strategiya belgilangan faoliyat ko'rsatkichlariga erishish uchun harakatlar va yondashuvlar majmui sifatida                                                 | A.Tompson, 1995-y.                                           | Strategiya bir vaqtning o'zida ham faol, ham adaptiv hisoblanadi                                                                                                             |

Ayrim mualliflarning “strategiya” tushunchasiga bergan ta'riflarini quyida ko'rib o'tishimiz mumkin:

- “Strategiya-kompaniyaning asosiy uzoq muddatli maqsad va vazifalarini belgilash, hamda harakat yo'nalishini rivojlantirish va ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni ajratishdir” (A.Chandler, 1962);

- “Strategiya uzoq muddatli harakat yo'nalishini ishlab chiqish va kompaniya faoliyati ko'lamini aniqlash bilan bog'liq. Strategiyaning vazifasi taktik harakat bilan emas, balki umumiy uzoq muddatli istiqbolni qabul qilish asosida maksimal barqaror raqobat ustunligini shakllantirishdir” (D.Folkner va G.Jonson, 1992);

- “Kompaniyaning strategiyasi – kompaniyaning ichki imkoniyatlari va tashqi muhit o'rtasidagi moslikni topishdir” (J.Key, 1999);

- Maykl Armstrong avvalgi yondashuvlarni umumlashtirib, “Strategiya kompaniyaning o'zini qanday ko'rishni, qaerga intilayotganini va umuman olganda buni qanday amalga oshirish kerakligi haqidagi yondashuv” deb hisoblashni taklif qildi (Maykl Armstrong, 2002).

Bizningcha, strategiya korxona va firmalarning uzoq muddatga mo'ljallangan maqsad va vazifalarga erishilgunga qadar korxonani tashqi bozor muhiti bilan bog'lash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Strategiya tushunchasining aniq ta'rifini berish juda qiyin, chunki u ko'p qirralidir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida olimlarning operatsion boshqaruvdagi strategiyalarga xos yondashuvlari o'rganildi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida kuzatish, mantiqiy yondashuv, tarixiylik va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlarimizga ko'ra, strategiyaga berilgan ko'p ta'riflar – korxonalarni bozorda o'z o'rnini mustahkamlash, korxonaning o'sish va yuqori raqobat qobiliyatini ta'minlash, qabul qilingan me'yorlar, ko'rsat-



malar orqali muayyan vaziyatlarda yashab qolish usullari va faoliyat qoidolari majmui sifatida bir-birini to'ldirishi mumkin

Strategiya so'zi ko'p qirrali bo'lganligi sababli, unga aniq ta'rif berish qiyin. Tahlillarimiz natijalaridan kelib chiqib, operatsion faoliyatni boshqarishda strategiyani mazmun-mohiyatiga quyidagicha izohlar berishimiz mumkin:



1-rasm. "Strategiya" atamasiga bo'lgan yondashuvlar.

Korxonaning strategiyalari uchta darajasidagi maqsad uchun ishlab chiqiladi: umumiy, uzoq muddatli va qisqa muddatli.

Shuningdek, tadqiqotlarga ko'ra operatsion faoliyatda strategiyalar quyidagi xususiyatlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin:

a) strategiya muayyan harakatlarda namoyon bo'lmaydi. U odatda korxona mavqeining o'sishini ta'minlovchi asosiy yo'nalishlarni belgilash bilan cheklanadi;

b) yalpi strategiyalar – loyihalar strategiyasini tavakkalchilik asosida ishlab chiqish va foydalanish imkonini yaratadi. Ya'ni, strategiyani o'rni – muammolarni hal etishda imkoniyatlarni baholash, hal etish jarayonida uning yo'nalishiga to'g'ri kelmaydigan boshqa yo'nalishlarni o'z vaqtida bartaraf etishdan iboratdir;

c) agar aniq voqea-hodisalar rivojlanishi tashkilotni ma'qul bo'lmagan holatlarga boshlasa, qabul qilingan strategiyaga bo'lgan zarurat yo'qoladi;

d) strategiyani ifodalash jarayonida muayyan loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini dastavval to'la ko'ra bilishning imkoni yo'qligi. Shu tufayli muqobil strategiyalar xususida yaxlit shakllanmagan va to'liq bo'lmagan axborotlardan foydalanishga to'g'ri keladi;



e) izlash jaryonida tegishli aniq axborotlar vositasida muqobil strategiyalar oydinlashadi. Dastlabki qabul qilingan yoki ifodalangan strategiya xususida ikkilanish vujudga keladi. Shuning uchun strategiyani amalga oshirishda qayta aloqa zarur bo'ladi.

Olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, opratsion faoliyatni boshqarishda strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirishda muammolar ham mavjud bo'lib, u o'z navbatida korxona faoliyatining kelgusi natijalariga to'g'ridan – to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, strategik boshqarishda qo'yidagi muammoli vaziyatlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin: strategik boshqaruv ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarining kelajakdagi holati haqida aniq ishonchli natija to'g'risidagi tasavvurni bera olmaydi, chunki belgilangan natijalarga erishishda resurslarni potentsial ko'rsatkichlariga asoslanadi; strategik boshqaruv ko'plab resurslarni harakatiga, ko'chishiga bog'liqdir, shuningdek ko'p vaqt oralig'ini talab qiladi; strategik boshqaruv rejalari maksimal darajada egiluvchan bo'lishi kerakki, keskin o'zgaruvchan sharoitlarda, kutilmagan o'zgarishlarda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga moslanishi lozim; strategik boshqaruvda bunday moslashmaslikda korxonalarda katta salbiy oqibatlariga olib keladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Operatsion faoliyatni boshqarish – bu mahsulot va xizmatlarning asosiy turlarini ishlab chiqarishga qaratilgan jarayonlarini tashkil qilish, ulardan foydalanish va takomillashtirish faoliyatidir. Bu faoliyatni samarali tashkil etish – faoliyatda maqbul strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga bog'liq.

Bizningcha, korxonalarda operativ boshqarish jarayoni muammolarini bartaraf etish va uni samaradorligini oshirish uchun shakllantiriladigan strategiyalar quyidagi natijalarga erishishni hisobga olishi lozim o'ylaymiz:

ishlab chiqarish zanjirida samarali hamkorlikni olib borish; menejerlar ta'minot zanjirida muhim bo'lgan ta'minotchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatish;

yuqori ta'sirchan (tezkor) tovarlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish (takomillashtirish); yangi texnologik ishlanmalar, noan'anaviy materiallar, innovatsion usullar, yangi jihozlar va mahsulotlarni tezroq yaratish;

ishlab chiqarishda moslashuvchanlik va tezlikni amalga oshirish, ya'ni talab hajmi, mahsulot assortimenti va dizayndagi o'zgarishlarga tezkor javob berish;

ishlab chiqarishda iste'molchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yetarli darajada moslashuvchan bo'lishi lozim va hakazo.

Shuningdek, operatsion faoliyatni boshqarishdagi ishlab chiqilgan strategiyalar tashkiliy tuzilma va uning funktsiyalarini bajarilish darajasiga hamda unda foydalanilayotgan usullarga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январда қабул қилган “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони, <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Dedajanov, B. N. (2022). Menejment. Darslik. –Toshkent: “Fan ziyosi” nashriyoti, 580.
3. Соколова М.И., Зайцев Л.Г. Стратегический менеджмент. –М., 2013. –14 с.
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Стратегия>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

